

OFFICE DASTURLARNI O‘QITISHDA O‘RGATUVCHI DASTURIY VOSITALARDAN FOYDALANISH

Umida Mirova Xalikova

Ilmiy Rahbar

To‘xtamishova Gulnora

3-bosqich talabasi

Buxoro davlat universiteti. Axborot-texnologiyalari

fakulteti.1.1 KIDT-20 guruh talabasi.

E-mail: dgudghh38@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Office dasturlarni o‘qitishda o‘rgatuvchi dasturiy vositalardan foydalanish.

Kalit so‘zlar: Office, printer, Windows operatsion tizimi, Microsoft Word, Microsoft Excel, Microsoft PowerPoint, Microsoft Access, versiya, NeoOffice Writer.

KIRISH:

Microsoft Office dasturlaridan foydalanuvchi har bir masalani yechishda, hujjatlarni tahrirlashda va boshqa ishlarda unimli foydalanishi mumkin. Officedan foydalangan foydalanuvchi ekranni o‘z xohishi bo‘yicha o‘zgartirishi, shriftlarni tanlashi, printerlarni tanlash, boshqa tizimlarni disklarga yozishi, qo‘shimcha kompyuter qurilmalarini o‘rnatishi va hokazo imkoniyatlardan foydalanishi mumkin. Qisqa qilib aytganda, kompyuter ishini o‘z xohishiga moslab kompyuter xotirasi, ekranni, ishlash tezligi, qo‘shimcha qurilmalaridan optimal foydalanishi mumkin. Mashxur Microsoft korporatsiyasi shaxsiy kompyuterlardan foydalanuvchilar uchun ko‘pgina dasturlar va operatsion tizimlarni ishlab chiqarishni jadal rivojlantirmoqdalar.

Jumladan, foydalanuvchilarning kompyuterdan foydalanish imkoniyatlarini oshirish uchun Office dasturlar to‘plamini ham ishlab chiqarishgan.

Ko‘pgina foydalanuvchilar Windows operatsion tizimi bilan Office dasturlar to‘plamini chalkashtirishadi. To‘g‘ri, bu ikkala dasturlarni ham Microsoft korporatsiyasi ishlab chiqgan va asosan shaxsiy IBM va Pentium kompyuterlariga o‘rnatishga mo‘ljallangan. Windows operatsion tizimi Office dasturlarisiz bemalol ishlay oladi, lekin Office dasturlari Windows dasturisiz ishlamaydi. Windows dasturlarining quyidagi versiyalari mavjud: Windows-95, Windows-98, Windows-2002, Windows NT, Windows XP va hokazo.

Office dasturlar to‘plamini esa quyidagi versiyalari mavjud: Office-95, Office-96, Office-97, Office-2000, Office-2002, va Office XP.

Office-2003 dasturlar to‘plamini shaxsiy kompyuterga o‘rnatish uchun kompyuterda Windows operatsion tizimi o‘rnatilgan bo‘lishi, so‘ng kompyuter operativ xotirasi kamida 8-16 Mb bo‘lishi va qattiq diskda kamida 250 Mbdan 700 Mbgacha(Officedan foydalanish imkoniyatiga qarab) bo‘sh joy bo‘lishi lozim.

Microsoft Office bir nechta xilda sotuvga chiqariladi. Ularning farqi to‘plam tarkibi va narxida. Office dasturlar to‘plamining nisbatan to‘liqroq variantiga quyidagi dasturlar kiradi:

Microsoft Word-har xil ko‘rinishdagi oddiy va murakkab matnlarni tahrirlashga mo‘ljallangan matn muharriri.

Muqobil dasturlar: OpenOffice. org Writer, LibreOffice Writer, StarOffice Writer, KWord, NeoOffice Writer, Corel WordPerfect, Apple Pages(bu faqat Mac OS tizimida) va AbiWord. Dasturiy ta‘minot yoki Software bu kompyuterda ma‘lum bir turdagi vazifani bajarish uchun ishlab chiqilgan vositadir bu hisoblash texnikasi vositalari bilan ma‘lumotlarni qayta ishlash tizimini yaratish va ulardan foydalanish uchun dasturiy va hujjatli vositalarni yig‘indisi tushuniladi. Aynan shu dasturiy ta‘minotgina kompyuter- quruq temir degan atamani yo‘qqa chiqargan. Dasturiy vositalar kompyuter tomonidan qo‘llaniladigan barcha dasturlar to‘plamidir. Ingliz tilida bu atama software ya‘ni "soft"- yumshoq, "ware"- "mahsulot" degan ma‘noni

bildiradi. Dasturiy ta’minot 3 guruhga bo‘linadi: 1. Sistema dasturlari(unga turli yordamchi vazifalarni bajaruvchi dasturlar kiradi: Task Manager(Windows OSda mavjud), 2. Amaliy(unga foydalanuvchiga aniq bir foydalanish sohasida ma’lumotlarga ishlov berish va qayta ishlashni amalga oshiruvchi dasturlar, masalan: Microsoft Office, Adobe CC), 3. Uskunaviy dasturlar. Hisoblash tizimi(kompyuter va tarmoqlar) tarkibi.

Hisoblash tizimi tarkibi konfiguratsiya deb ataladi. Odatda hisoblash texnikasining apparat va dasturiy vositalari alohida olib o‘rganiladi. Shuning uchun ham mos ravishda hisoblash tizimlari apparat konfiguratsiyasi alohida olib o‘rganiladi.

Bunday bo‘linish axborot texnologiyalari uchun muhim ahamiyatga egadir, chunki ko‘p hollarda alohida olingan masala yechimini ham apparat, ham dastur vositalari yordamida ta’minlash mumkin. Apparat ta’minoti. Hisoblash tizimlarining apparat ta’minoti tarkibiga, apparat konfiguratsiyani tashkil etuvchi qurilma va asboblarni kiradi.

Office-2003 dasturlar paketiga quyidagi dasturlar kiradi.

MS Word-har xil ko‘rinishdagi oddiy va murakkab matnlarni tahrirlashga mo‘ljallangan matn muharriri.

MS Excel- har ko‘rinishdagi hisob-kitobli ma’lumotlar bilan ishlashga mo‘ljallangan elektron jadvali dastur.

MS PowerPoint- m’lumotlarni taqdimot, reklama qilishga mo‘ljallangan taqdimot dasturi.

MS Publisher- har xil tipdagi noshirlik ishlarini bajarishga mo‘ljallangan muharrir dastur.

MS OUTLOOK- elektron pochtdan foydalanishga mo‘ljallangan dastur va hokazo.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

Internet manbalaridan.